

2. Bim I. L. Nekotore aktualnie problemi covremennogo obucheniya inoctrannim yazikam.- YAISH. 2001, № 4.- S.39

3. Yoralieva U.Q. Specifics of teaching foreign languages in the preschool education system and the possibilities of using interactive methods in it. Journal of modern education. - T., 2014, No. 9.- 27 b.

## PRAGMATIK MA‘NO KOMMUNIKATIV AKT SAMARADORLIGI UCHUN MUHIMMI?

M. A. Abduvaliyev

*Prof. Andijan davlat chet tillari institute*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada lingvistik birliklarning nutqiy ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladigan pragmatik ma‘no, u bilan bog‘liq lingvistik va ekstralingvistik omillar, pragmatik ma‘noning perlokutiv ahamiyati haqida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** *kommunikativ akt, nutqiy muloqot, adresant, adresat, til belgilari, jumla, kontekst, perlokutsiya.*

**Аннотация:** *В данной статье идёт речь о прагматическом значении языковых единиц речевых репрезентантов лингвистических и экстралингвистических факторах, способствующих возникновения данного значения, а также о важности перлокуции в прагматическом значении.*

**Ключевые слова:** *коммуникативный акт, речевая коммуникация, адресант, адресат, языковые знаки, высказывание, контекст, перлокуция.*

**Annotation:** *The present article deals with pragmatic meanings that appear in speech units, linguistic and extralinguistic factors connected with them, on the importance of perlocution in pragmatic meaning.*

**Key words:** *communicative act, speech communication, sender, addressee, language signs .utterance, context, perlocution.*

Insoniyat paydo bo‘libdiki, uning asosiy maqsad-muddaosi uni o‘rab turgan olam, olamning turli ko‘rinishlari haqidagi bilimlarni egallash, bunday bilimlarni boshqalar bilan o‘rtoqlashishni, bu orqali o‘zining ma‘naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirishdan iborat bo‘lib kelmoqda va, bizning nazarimizda, shunday bo‘lib qoladi.

Shaxslararo, halqlar, millatlararo muloqot verbal/noverbal, bevosita/bilvosita shaklda amalga oshishidan qat‘iy nazar, u borliq, undagi turli tuman munosabatlar haqidagi habar, ma‘lumotlar bilan qurollantirishdan tashqari, unga bo‘lgan turlicha talqin, baho va interpretatsiyalar ham namoyon etadi.

Nutqiy muloqot shakliy va mazmun jihatidan sodda va murakkab sintaktik konstruksiyalar orqali amalga oshadi. Nutqiy faoliyatning maqsadli hususiyati kommunikatsiya vositasi vazifasini bajaravchi til sintaktik birliklarining funksional jihatlarini o‘rganishni taqozo etadi. Chunki, tillarda u yoki bu sintaktik birlik turli muloqot vaziyatlarida turlicha ma‘no, mazmun kasb etishi mumkin. Kommunikativ vaziyat deganda muloqot sodir bo‘ladigan lingvistik va ekstralingvistik sharoitlarni tushunamiz. Muloqot adresant, adresat, gap (jumla) va ma‘lum kontekst mavjudligida amalga ohsa, pragmatika ularni kommunikatsiya maqsadi va natijasi bilan to‘ldiradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, nutqiy muloqotda pragmatik ma‘no yuzaga kelishning tayanch modelini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

Lingvistik kontekst

Adresant \_\_\_\_\_ Muloqot birligi \_\_\_\_\_ Adresat

Maqsad – muddao      Ekstralingvistik kontekst      Talqin

## Perlokutiv natija

(samara)

Adresant va adresat o‘rtasida kechadigan muloqot ikki tomonlama xususiyatga ega bo‘lib, ushbu jarayon (dialog) da ularning maqomi va o‘rni almashinishi mumkin. So‘zlovchi tomonidan qo‘llangan jumla ma‘lum habarni tashiydi. Bu habar jumlada eksplitsit yoki implitsit tarzda o‘z ifodasini topadi. Boshqa so‘zlar bilan aytganda, maqsad-muddaoni aks ettiruvchi habar kommunikantlar uchun tushunarli va aniq bo‘lsa, tilga olinmagan habar esa yashirin, bir qarashda anglanmaydigan xususiyatga ega bo‘ladi. Masalan, Ko‘z tegmasin, ajoyib kelinginam borda... [S. Abdulla, Muqumiy]; Qizlarga ancha masofadan ko‘z tashlab o‘tdi u, lekin Anorxonni ko‘rmadi. [Oybek, Oltin vodiyan shabadalar]; O‘chirma! Zunnun, yoqib qo‘y, jonim... [A. Cho‘lpon, Kech va Kunduz, 166]; Qaydaman? Nima holdaman? Kecham nimaydi? [A. Cho‘lpon, Kecha va Kunduz, 201]; Ular millat dushmanlari... Bu ularga dushman! Shuni unutmangiz! [A. Cho‘lpon, Kecha va Kunduz, 207]; No one would help her if she did not help herself! [J. Galsworthy, the Forsyte Safa, 227]; Where are you going to take me? She asked [J. Galsworthy, The Forsyte Safa, 230]; Don’t get caught in the storm! [J. Galsworthy, The Forsyte Safa, 233].

Muloqotda tilga olinmagan habar o‘zining to‘g‘ri ma‘no-mazmunidan tashqari yana bir mazmunga ega bo‘ladi-ki, buni har kim ham ilg‘ab olishi qiyin. Buni misollar oraqli tasvirlab berishga harakat qilamiz. O‘zbeklar muloqotda ikki qo‘lni og‘ziga tiqmoq iborasi ma‘lum nutqiy kontekstdagi jumla tarkibida “hovliqib, lozim bo‘lganidan ortiqroq narsani ro‘yobga chiqarish (shunga erishish) uchun intilish ma‘nosiga ega bo‘ladi: Bolam, ikki qo‘lingni og‘zingga tiqma. Alloh berganiga shukur qil, nafsingni jilovla. Ikki qo‘lingni burningga tiqma, bolam. Uyat bo‘ladi jumlasida “qo‘lini burniga tiqmoq” birikmasi o‘zining to‘g‘ri ma‘nosida kelayotgan bo‘lsa, Rangi quv o‘chib, yupqa lablari titrab, ko‘zlarining paxtasi chiqib ketdi jumlasida g‘azabi ko‘zida aks etib, ko‘zi chaqchaydi ma‘nosiga ega. Ingliz tilida tag mazmunli gaplarga quyidagilar misol bo‘ladi: He licked the fat from the beard of his father. Bu gapni “U otasining soqolidagi yog‘ni yaladi” ma‘nosida yoki “Otasining topganini yeb yuribdida” ma‘nosida tushunish mumkin. Keyingi yashirin mazmunni xattoki bu til egalarning hammasi ham tushunavermaydilar. Yana bir qiziqarli misol shuki, He lay with his fathers (U otalari bilan yotibdi) eksplitsit ma‘nosidan tashqari, diniy matnlarda “U o‘z yurtida dafn qilingan” ma‘noda qo‘llanadi.

Bu va bu kabi misollar G.G.P. Graysning, “jumlaning o‘rganish nafaqat uning mazmuniga, balki so‘zlar vositasida ifodalanmagan, biroq anglashilgan hodisalarga ham murojaat etishga majbur qiladi”, degan fikri naqadar to‘g‘ri ekanligidan dalolat beradi.

Ma‘lumki, nutqiy faoliyat jarayonida bir emas, balki jumlar shodasi, xattoki ulardan tuzilgan asar maqomidagi matn (diskurs) lar paydo bo‘ladi. Nutqiy aktning haqiqiy natijasi (perlokutsiya) diskursda, ya‘ni uning tarkibiga kirgan va kommunikativ aktning tashkillovchi ikkita jumla “ittifoqi” orqali yuzaga chiqadi. Bunda matn (diskurs) u yoki bu jumlaning ko‘chma, bilvosita, yashirin vazifasini o‘taydi. Demak, nutqiy akt formal va mazmun planiga ega bo‘lib, uning formal tomomini til birliklari, intonatsiya va kinesika, mazmun planini propozitsion ma‘no, illokutiv vazifa, motiv, maqsad, adresatga ta‘sir o‘tkazish taktikasi, muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy va shaxsiy xususiyatlari, ruhiy holatlari va perlokutiv samara tashkil etadi deb hisoblaymiz.

Gap nutqiy akt samaradorligi haqida ketar ekan, uning samarali va samarasiz turlarini farqlaymiz.

G.P.Grays muloqot samaradorligiga erishishning to‘rtta muhim talablarini ta‘kidlaydi. Bular: 1) sifat maksima (ya‘ni jumla yolg‘ondan xoli bo‘lishi lozim); 2) son maksima (ya‘ni jumlada yetarli darajada ma‘lumot bo‘lishi lozim); 3) munosabat yoki relevantlik maksimasi (ya‘ni faqat ish yoki mavzuga aloqador narsalar haqida gapirasiz); 4) harakat tarzi maksimasi (ya‘ni jumla (lar) tushunarli, bir ma‘noli, qisqa va uzviy bo‘lishi lozim).

Bizningcha, bunday maksimalar qatoriga kirishimlilik, iltifotlilik, e‘tibor kabilarni ham kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb o‘ylaymiz. Nutqiy aktlarning tasnifi borasida turlicha yondashuv va qarashlarni kuzatish mumkin. Masalan, K.Byuler jumlaning ekspressiv, appelyativ va representativ vazifalarini farqlasa, R.Yakobson uning emotiv vokativ-imperativ, referent, metatil, fatik (aloqa o‘rnatish), poetik vazifalarini ajratadi. F.Xundsnursher o‘z tasnifini tinglovchi shahsini asos sifatida olgan holda amalga oshirgan. Bunga muvofiq u nutqiy aktlarni buyruq, iltimos, negativ (voz kechish), pozitiv reaksiya (ko‘nish, rozilik) kabilarga ajratgan.

Pragmatik ma‘no har qanday til birliklarining nutqiy(funksional) ko‘rinishlarida aniqrog‘i ularning semantik strukturasi komponenti sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, so‘z pragmatikasi haqida fikr yuritish o‘rinli bo‘ladi. Bu ma‘noni aniqlashda komponent tahlil va verbal kommunikativ pragmatik kontent (vaziyat) tahlil samarali metod va usullar hisoblanadi. Masalan, boy polisemant (7 ma‘noli) leksemasi A.S. Xornbining “Oxford Advanced learner’s Dictionary of Current English” lug‘atida quyidagi ijobiy va salbiy ma‘nolarga ega: 1. Erkak chaqaloq (go‘dak) yoki yosh erkak bola: The older boys at school used to tease him. 2. Yosh o‘g‘il farzand: They have two boys and a girl. 3. (qo‘shma so‘zlar tarkibida katta yoshli kishiga nisbatan dilini og‘ritadigan so‘z) muayyan ishni bajararuvchi bola yoki yosh bola: a delivery boy. 4. Biron joydan kelgan kishi haqida gapirish yo‘li: He’s a local boy; a city boy. 5. (the boys; norasmiy) birgalashib ko‘chaga chiqadigan bolalar guruhi: a night out with the boys. 6. (our boys) mamlakatingiz askarlari haqida zavqlanib gapirish. 7. Amer. ingliz. qora tanli kishini dilini og‘ritadigan murojaat.

Ta‘riflardan boy leksemasining markaziy va asosiy semasi bu erkak bola (a male child) bo‘lib, undan tashqari u orqali odamzod (human being), yoki (age) va jinsi (male) anglashiladi. Shuningdek, boy yoshiga ko‘ra ikki semani qamrab olgan, ya‘ni 17-18 yoshgacha bo‘lgan bola va yoshi undan katta (katta yoshli kishi, a grown man). Boy semantikasining ikkinchi turida muloqot ishtirokchilarining teng bo‘lmagan munosabatlari anglashiladi. Bu, albatta, kontekstual xususiyatga ega bo‘lib; a male child va a grown man o‘rtasidagi konkret nutqiy vaziyatda yangi referensial ma‘no (katta yoshli aniq bir kishi) yuzaga keladi. A. S. Xornbi lug‘atida boy leksemasi orqali adresant adresat ijtimoiy mavqei past, irqiy jihatdan tobe tabaqaga mansub ekanligini anglatadi. Bu ma‘no ro‘yobi uchun aniq nutqiy kontekst (vaziyat) zarur bo‘ladi. Masalan, P. Abraxamsning "The path of thunder" asarining 189-191 sahifalarida Lenni va Sarri o‘rtasidagi muloqot samimiylik va muhabbatga asoslangani uchun, garchi ular irqi va maqomiga ko‘ra turli ijtimoiy maqomiga ega bo‘lsalar ham, boy leksemasining o‘sha salbiy semasi kuzatilmaydi. Yoki asarning 30-33 sahifalarida Lennining onasi hayolidan o‘tgan satrlar: " The little boy who played in the place was this that same little boy who shouted and ran about the house; the barefooted boy with the torn shirts and pants... [p31] da ham shunday ijobiy ma‘noni anglash mumkin.

Lekin asarning 20- 21 sahifalarida Lenni bilet tekshiruvchi, 22-25 sahifalarida uch nafar oq tanli kishilar va Lenni o‘rtasida kechgan nohush va sovuq munosabatli suhbat aynan boy leksemasini

salbiy (yettinchi) ma'noda qo'llanilishi uchun qulay kontekst deb hisoblaymiz. Tahlillar o'zbek tilida bola leksemasining semik ko'lamini ingliz tiliga nisbatan keng ekanligini ko'rsatdi. Bolaning O'TILga ko'ra, birinchi, ikkinchi, to'rtinchi, beshinchi ma'nolari boy leksemasi ma'nolari bilan umumiylik kasb etsa-da, aksariyat hollarda o'zgachalik mavjud. U orqali yasalgan qo'shma otlar turli ijobiy va salbiy (kam) ma'nolarni ifodalaydilar: askar bola, kelin bola, ko'cha bola(si), o'g'il bola. Bolaning lug'atdagi qiz bola (ayol jinsdagi bola va bo'sh, zaif yoki qizlarga xos qiliqlar qiladigan o'g'il bolalarni masxaralab aytiladigan ibora), yangi tug'ilgan, tuxumdan chiqqan, hali voyaga yetmagan yosh hayvon yoki parranda (Ilonning bolasi- ilon, Chayonning bolasi-chayon (Maqol), homila qorindagi gumona ma'nolari ingliz tilidagi boy leksemasida mavjud emas.

Demak, har ikki tilda boy va bola nomemalari maqomini o'zgarishi, bu esa turli lingvistik va nolingvistik kontekstlarga bog'liqligini chet tili o'qitish va tarjima jarayonlarida inobatga olish muloqotning perlokutiv samarasini oshiradi. Pragmatik ma'no chog'ishtirilayotgan tillar frazeologik va paremiologik fondida ham kuzatiladi. Masalan, Janubiy Afrika yozuvchisi Piter Abrahams qalamiga mansub “Chaqmoqli yo‘llar” asarida Lenni, Meyko va Isaak o‘rtasida kechgan suhbatda quyidagi gaplar mavjud: Nationalism is a fact, whether you accept it or not va The national intermarriage, whether it is between white and black or between pink and red, is a mirror of this highest form of world nationalism when man will really be free.

Birinchi gapning mazmuni Siz buni qabul qilasizmi yo yoqmi, millatchilik bor narsa. Vebsterning izohli lug'atida ushbu so'z millatga bo'lgan sadoqat, fidoyilik, milliy ong, munosabat, his-tuyg'u yoki e'tiqod deb tavsiflangan.

Bizningcha, ushbu kontekstda gap millatchilik haqida emas, balki milliy his--tuyg'u (НАЦИОНАЛЬНОЕ ЧУВСТВО), milliy g'urur, millatga bo'lgan sodiqlik haqida ketmoqda. Millatlar, katta yoki kichik bo'lishidan qat'i nazar, o'z or-nomusi, ma'naviy va moddiy qadriyatlarga ega ekanligi, buni o'zga millat vakillari hurmat qilishi kerakligi, aks holda dunyo ozod va baxtli bo'la olmasligi nazarda tutilgan. Keyingi gap ushuning mantiqiy davomi sifatida namoyon bo'lib, u millatlararo nikoh, xoh u oq va qoralar, xoh pushti va qizillar o'rtasida bo'lsin, inson haqiqiy ma'noda ozod bo'ladigan dunyo milliy his-tuyg'ulari oliy shaklining ko'zgidir ma'nosini anglatmoqda. Ushbu gapning tag ma'nosida irqi, kelib chiqishi, terisining rangi kabilarni millatlararo nikohda erkinligi va tengligini ifoda etuvchi milliy ong ko'rinishi mazmuni yotadi. Ushbu gapda kolorizmlar va mirror so'zini metafora vazifasida qo'llanilgani to'siqsizlikni implitsit tarzda ifodalovchi gapning ekspres-sivligini oshirgan.

Asardagi yana bir mikromatn e'tiboriga loyiq. Roman qahramonlaridan biri Meyko shunday deydi: “Men rangli kishilarni yuqoriga ko'tarilishlari yoki bunga harakat qilishlariga qarshi emasman, chunki bu oq tanlilar tomonga ko'tarilishdir. ... Agar oq va qora tanlilar teng bo'lishsa, rang borasidagi to'siqlar bo'lmasa, agar qora tanli Parlamentga saylana olsa, ular bir xil huquqlarga ega bo'lsa maqbul ish bo'lardi. Bunda men qarshi bo'lmasdim”. [tarjima bizniki] Ushbu gapda ifodalangan pragmatik ma'no voqealar sodir bo'layotgan davrda oq va qora tanlilar o'rtasida tenglik va boshqalar mavjud emasligi, adresant bu holatga qarshi ekanligini anglatmoqda. Bu ma'no uyushib kelgan if li gaplar tarkibidagi fe'llarning hozirgi zamondagi noreal shakllari were, could go, had, wanted, would be va would not object orqali yuzaga chiqmoqda.

Inglizlar frazeologik fondida “There is no holding someone” iborasi “biron kishini biron ish qilishga g'ov bo'lmaslik, tutib turmaslik” ma'nosiga ega. Uning tag ma'nosida esa, “kim bo'lsa ham ishni emin-erkin davom ettiraversin” ma'nosi mavjud.

Put that in your pipe and smoke it (so‘zma-so‘z tarjimasini uni mushtuk solib chekib yuboring) iborasining ma‘nosi aytilgan narsa sizga yoqadimi, yoqmi uni qabul qilishingiz kerak: I am engaged to her, so put that in your pipe and smoke it. Uning pragmatik ma‘nosi e‘tirozga, muhokamaga o‘rin yo‘qdir.

The sky is the limit iborasi osmon bepoyon va cheksizdir ma‘nosini anglatadi: He proudly proclaims that today in Russia the sky is the limit to what a person can earn; Majoziy ma‘noda qo‘llangan hollarda ushbu ibora qaysi soha bo‘lmasin muvaffaqiyatlarga erishish uchun cheksiz imkoniyatlar mavjudligini anglatib keladi.

O‘zbek adibi Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” asarida, “Chavandoz bova! - dedi. “ – Oshingni yesa-da, mard yesin, boshingni yesa-da mard yesin! Bun-day tantilikdan keyin, haq sizdan aylansin! - dedi. Bakovul menga bir serka bilan yigirma so‘m pul berdi. Ushbu jumla chavandozlarning ko‘pkari musobaqasi jarayoniga taalluqli bo‘lib, uloqni halol qo‘lga kiritgan chavandozga nisbatan qo‘llangan. Uning tag ma‘nosida nimasiki yegulik bo‘lsa, mard er kishi bilan baham ko‘r, jon fido qilmoqchi bo‘lsang mard kishiga fido qil, shunday yo‘l tutsang, obro‘-e‘tiboring, hurmating hamisha baland bo‘ladi, o‘zingni nomarddan uzoq tut mazmuni yotibdi. Mazkur mazmun osh va bosh leksemalarining yemoq fe‘li bilan birikib hosil qilgan oppozitsiyasi orqali namoyon bo‘lmoqda.

Abdulhamid Cho‘lponning “ Kecha va kunduz” romanida Valya, Zunnun, Miryoqublar bilan suhbat chog‘ida o‘g‘li Fedya sartcha kitoblarni o‘qishi, sartcha yozishi, u sartlarni juda yaxshi ko‘rishini ta‘kidlar ekan, yuvosh, qo‘yday xalq, deydi. Qancha jabr ko‘rsa, qiynalsa ham "xudo" deb tura beradi, deydi. Bundan sartlar sabr-toqatli, shukurli, boshiga kelgan yaxshi va yomon kunlar Ollohdan deb yashaydigan yuvosh xalq ekanligini tushunish mumkin.

Asarda tergovchi o‘rtasida kechgan suhbat paytida tergovchi Miryoqubga shunday tavsif beradi: Miryoqub qancha balandparvoz bo‘lgani bilan, o‘z bo‘yidan ortiq ko‘tarilolmaydi. Chunki, u bir it! Olchoq va ayanchli bir it! U o‘zini goh arslon rangiga, goh qoplon rangiga, goh she‘r va goh yer bo‘yoqlariga bo‘yab ko‘rsatadi. Faqat ohakka og‘anab, kaptarlar orasiga kirgach, yana o‘z ovozi bilan "g‘o-og‘, g‘o-og“ deb yuborgan go‘ng qarg‘a singari uning asl itligi yaqqol ko‘rinib turadi. Adib Miryoqubning shaxsiy sifatlarini o‘quvchilarga ifodali va ta‘sirchan ravishda ochib berish uchun tasviriy vositalardan mohirona foydalangan, bu esa o‘quvchi ushbu mikromatnda yashiringan pragmatik ma‘noni oson va tez ilg‘ab olishiga xizmat qilgan.

Ushbu kontekstda ko‘chma ma‘noda qo‘llangan balandparvoz so‘zi Miryo-qub o‘zini katta oluvchi, gerdaygan kishi bo‘lsa-da, aslida u hech kim emasligi, o‘taketgan razil, past, yovuz, nomard va xotinboz ekanligi o‘z bo‘yidan ortiq ko‘ta-rilolmaslik FB, itga xos olchoqligini unga ko‘chishi, u har qanday tusga kirmasin, baribir uning basharasi uning so‘zlaridan, harakatlaridan ayonligi tasvirlab berilgan.

Demak, til birliklarining kommunikativ-pragmatik jihatlarini ularning denotativ-signifikativ va stilistik jihatlarini bilan aloqadorlikda o‘rganish til birliklarining semasiologik nazariyasini yangidan yangi okkazional ma‘no, mazmunlar bilan boyitishga, kommunikantlarning nutqiy hulq-atvorini to‘g‘ri tushunish va nazorat qilishga yordam beradi. Shu bois maqola sarlavhasini tashkillovchi savolga "Ha" deb javob beramiz va til birliklarining turli ijtimoiy, madaniy, psixologik, lingvistik va boshqa kontekstlardagi funktsional-semantik jihatlarini tadqiq etish muhimligini alohida ta‘kidlaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Азнаурова Э. С. Прагматика художественного слова Т. Издательство "Фан" Узбекской ССР 1988-121с.
2. Клаус Г. Сила слова. Гносеологический прагматический анализ языка М., Издательство Прогресс 1967. - 216с.
3. Гак В. Г. Прагматика, узус грамматика речи//Иностраный язык в школе 1982. № 5-С 7-11.
4. Hundsnurscher F. On insisting //Possibilities and limitations pragmatico. Amsterdam: Benjamins 1981.-P. 343-358.
5. Якобсон Р. Речевая коммуникация. Язык в отношении к другим системам коммуникации: избранные работы М.: Прогресс, 1985. - С. 306-330.
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика Т., Узбекистон миллий энциклопедияси "Давлат илмий нашриёти" 2008. - 300б
7. Бюлер К. Теория языка 2-ое из. - М.: Изд. группа "Прогресс, 2000. - 501с.
8. Webster's Third New International Dictionary Konemann 1993. - 2662p.
9. Hornby A. S. Oxford Advanced learners Dictionary of Current English. - London: Oxford University press, 2000.-294p.
10. Узбек тилининг изоҳли луғати I-жилд А - Д Т. "O'zbekiston nashriyoti", 2020. - Б. 305-307.